

MEHR FARISHTASI

Hotamova Lola

Buxoro viloyati Jondor tumani 43- umumita 'lim maktabi 8- sinf o'quvchisi

Dunyoda eng ko‘p kimni yaxshi ko'rasan? deb savol berilganda hech ikkilanmasdan onajonimni deb javob bergan bo'lar edim. Ona haqida yozar ekanman qalbimda o'zgacha bir hayajon bor, vujudim titraydi, ko'zlarim beixtiyor yoshlanadi. Chunki bu ona! Onaga ta'rif berishga hatto qalamim ham ojiz. Onani qancha ta'riflasak ham hatto oz. Ona kim bilasizmi? Ona bu - tun - u kun farzandim deb yashaydigan jonkuyar inson, o'zining qorni och bo'lsa ham farzandim yesin deb yashaydigan, o'zi eski ko'yak kiysa ham, farzandim yangi ko'yak kiysisin deydigan, doimo xayoli farzandida bo'lgan, hatto farzandi uchun o'z shirin jonidan ham voz kechishga tayyor bo'lgan insondir. Onaning farzandiga bo'lgan mehri shu qadar ummon kabi cheksizki, hatto tasavvur qilib ham bo'lmaydi. Dunyodagi hech bir inson ona bergen mehrni berolmaydi. Hech kim onaning o'rnini bosolmaydi. Vatanni onaga o'xshatish mumkin, lekin onani hech kimga o'xshatib bo'lmaydi. Onada hech kimda bo'lмаган o'zgacha bir sehr bor. U bizni o'ziga tomon chorlayveradi, yaxshiliklar qilishga undayveradi. Onalar haqida qanchadan qancha she'rlar bitilgan, qo'shiqlar kuylangan. Ularning barida ona mehri, ona sadoqati mujassamdir. She'rlarni o'qib, qo'shiqlarni tinglab ko'zga yosh keladi. Hatto ona haqida hadislar ham mavjud. Bularning birida " Kimga yaxshilik qilay? " deganda uch marotaba ham onangga deb aytilgan. Shuning uchun ham onaning haqqini ikki dunyoda ham uza olmaymiz. Og'ir vaziyatga tushib qolganimizda ishongan do'stlarmiz tashlab ketsa ham, faqat onagina bizni aslo tashlab ketmaydi, doimo yonimizda bo'ladi. Biz uchun qayg'urib jon kuydiradi.

Tug'ilmaydi hech qanday inson,

Yer yuzida ona bo'lmasa,

Tug'ilmaydi hattoki hayvon,

Hayvonda ham ona bo'lmasa.

Albatta, onasiz hayvon ham tug'ilmaydi, hatto unib chiqadigan o'simliklar ham ona yerning farzandidirlar.

Bugungi kunda onasi yo'q, onaning birgina shirin so'ziga, mehriga zor bo'lgan bolalar juda ham ko‘p. Davlat ularga yaxshi sharoitlar yaratib bergan bo'lsada, ularning ko'ngil doim yarimtadir. Lekin onasi hayot bo'la turib, uning qadriga yetmaydigan insonlar ham bor. Nega shunday ekana? Nega! Axir onadanda aziz va ulug' zot bormikin bu dunyoda? Nahotki mol - dunyo, boylik, ish onadanda muhim bo'lsa? Onangizga qachon oxirgi marta vaqt ajratdingiz? Oxirgi marta qachon " Onajon men sizni yaxshi ko'raman " deb aytdingizaytdingiz ? Unutmang umr g'animatdir. Onangizni hayotligida qadrlang. Onangizdan bor mehringizni ayamang. Zero, eng mo'tabar zot bu - onadir!